



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**“NAVOIY” ROMANI TURKCHA TARJIMALARIDA
FRAZELOGIZMLARNING BERILISHI****Kamola Rasulova**

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrası doktoranti,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: roman, frazeologizm, maqol, ekvivalent, muqobil tarjima, xos so'z, badiiy tarjima.

Annotatsiya. Ushbu maqola atoqli o'zbek adibi Oybekning “Navoiy” romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlar mavzusiga bag'ishlanadi. Maqolada tarjimalarning yutuq va kamchiliklari tahlillar orqali yoritib beriladi. Ahsan Batur va Shuayip Karakash tomonidan ikki marta amalga oshirilgan tarjimalarda milliylikning aks etishi, xos so'zlarning berilishi, ekvivalent va muqobil so'zlardan qay darajada foydalanilgani yoritib beriladi.

O'zbekistonning Turkiya Respublikasi bilan to'laqonli munosabati o'rnatilgan davr mustaqilligimizning ilk yillariga to'g'ri keladi. Bu yillar davomida yurtimizda adabiyotga, san'atga, madaniyatga va albatta tarjimaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bu davrdan boshlab o'zbek adabiyotining sara namunalarini turk tiliga va turk adabiyoti sara asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari o'zining yuqori cho'qqisiga erishdi.

Oybekning “Navoiy” romani til va badiiy mahorat jihatdan diqqatga sazovor asar. Adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili boyliklaridan jumladan, frazeologizmlardan juda ustalik bilan foydalangan. Ularning turkchaga tarjimasi esa ba'zi o'rinlarda ekvivalentlar vositasida, ayrim joylarda muqobil frazeologizmlar bilan gohida tasviriy usulda ya'ni na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'g'irishning imkoni topilmaganda, san'atkorlar tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida frazeologik birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib beriladi. Frazeologizmlarni tarjima qilishda kalka usulidan foydalanilganda esa ayrim so'z va birikmalarning o'zga

tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega emasligi so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilishga undaydi. Maqolada shu kabi bir qancha frazeologizmlar tahlillari bilan tanishish mumkin.

THE TRANSMISSION OF PHRASEOLOGISMS IN TURKISH TRANSLATIONS OF THE NOVEL "NAVOIY"

Kamola Rasulova

*Doctoral Student, Department of Translation Studies and International Journalism,
Tashkent State University of Oriental Studies*

ABOUT THE ARTICLE

Key words: *novel, phraseology, proverb, equivalent, alternative translation, special word, literary translation.*

Annotation. *Abstract. This article is devoted to the topic of phraseological units in Turkish translations of the novel "Navoi" by the famous Uzbek writer Oybek. The article, through analysis, highlights the achievements and shortcomings of translations. The translations, made twice by Ahsan Batur and Shuayyip Karakash, highlight the reflection of nationality, the use of specific words, the degree of use of equivalent and alternative words.*

The period of establishing full-fledged relations between Uzbekistan and the Republic of Turkey corresponds to the first years of our independence. Over the years, attention to literature, art, culture and, of course, translation has increased in our country. Since this period, the work of translating the best examples of Uzbek literature into Turkish and the best works of Turkish literature into the Uzbek language has reached its climax.

Oybek's novel "Navoi" is a wonderful work in terms of language and artistic skill. Adib skillfully used the art of psychological analysis and the richness of the folk language, including phraseology and expressions, to create the image. Their translation into Turkish is done somewhere with the help of equivalents, somewhere with alternative phraseology, sometimes in a descriptive way, i.e. When it is impossible to translate either with the help of an equivalent, or an alternative version, or with the help of a pencil, artists resort to the descriptive method of translation practice, what they do is that with the help of this method, the meanings of phraseological units are explained through words or phrases that have a free meaning. When translating phraseological units using the calc method, the fact that some words and phrases do not have their equivalent or alternative version in another language prompts us to turn to the method of literal translation. In the article you can familiarize yourself with the analysis of several such phraseological units.

ПЕРЕДАЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ТУРЕЦКИХ ПЕРЕВОДАХ РОМАНА «НАВОИЙ»

Камола Расулова

Докторант кафедры переводоведения и международной журналистики,
Ташкентский государственный университет востоковедения

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: роман, фразеология, пословица, эквивалент, альтернативный перевод, специальное слово, художественный перевод.

Аннотация. Данная статья посвящена теме фразеологизмов в турецких переводах романа известного узбекского писателя Айбека «Навои». В статье посредством анализа освещаются достижения и недостатки переводов. В переводах, сделанных дважды Ахсаном Батуром и Шуайином Каракашем, выделено отражение национальности, употребление конкретных слов, степень использования эквивалентных и альтернативных слов.

Период установления полноценных отношений между Узбекистаном и Турецкой Республикой соответствует первым годам нашей независимости. За эти годы в нашей стране возросло внимание к литературе, искусству, культуре и, конечно же, переводу. С этого периода достигла своего апогея работа по переводу лучших образцов узбекской литературы на турецкий язык и лучших произведений турецкой литературы на узбекский язык.

Роман Айбека «Навоий» — замечательное произведение с точки зрения языка и художественного мастерства. Адиб умело использовал для создания образа искусство психологического анализа, богатство народного языка, в том числе фразеологию и выражения. Их перевод на турецкий язык производится где-то с помощью эквивалентов, где-то с альтернативной фразеологией, иногда описательным способом, т.е. когда невозможно перевести ни с помощью эквивалента, ни альтернативного варианта, ни с помощью с помощью карандаша художники прибегают к описательному методу переводческой практики, они делают то, что с помощью этого метода значения фразеологизмов объясняются посредством слов или словосочетаний, имеющих свободное значение. При переводе фразеологизмов методом калка тот факт, что некоторые слова и словосочетания не имеют своего эквивалента или альтернативного варианта на другом языке, побуждает обратиться к методу дословного перевода. В статье вы сможете ознакомиться с анализом нескольких таких фразеологизмов.

KIRISH.

Taniqli o'zbek yozuvchisi Oybek "Navoiy" romanida o'zbek adabiyotida ilk bora, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi. Mazkur asar o'zbek adabiyotining shuhratini yanada oshirdi. 1942-yilning qahraton qishida tugallangan "Navoiy" romani 1944-yilda nashr etilib, oradan o'tgan 75 yil mobaynida jahonning o'nlab tillari, jumladan, rus (1945), fransuz (1948), latish (1947), litva, eston, chex, qozoq (1949), ukrain (1950), uyg'ur (1952), turkman (1955), xitoy (2002), ingliz (2016) tillariga tarjima qilindi. "Navoiy" romani O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi yillarida (1995) Ahsen Batur tomonidan ilk bor turkchaga o'girildi. Biroq, so'nggi yillarda romanni taniqli turk olimi, iste'dodli tarjimon Shuayip Qoraqosh turk tiliga qayta tarjima qildi va "O'tukan" nashriyotida chop ettirib, Turkiyadagi o'zbek adabiyoti ixlosmandlariga armug'on etdi. Ahsan Batur va Shuayip Qoraqosh tomonidan ikki marta amalga oshirilgan tarjimalarda milliylikning aks etishi, xos so'zlarni berilishi, ekvivalent va muqobil so'zlardan mohirona foydalanilgan.

Oybekning "Navoiy" romani til va badiiy mahorat jihatidan diqqatga sazovor asar bo'lib, adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili boyliklaridan jumladan, frazeologizmlardan juda ustalik bilan foydalangan.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema – ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi. Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi, ya'ni frazeologizmlar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas¹. Masalan: *anqoning urug'i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir va boshqalar*.

Tilning keng ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi frazeologizmlar nutq ta'sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o'zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so'zlar sifatida xalqning urf-odati, an'analari, madaniyati va tarixini o'zida yaqqol aks ettiradi. Ularning badiiy tarjimada berilishi fanning dolzarb mavzularidan hisoblanadi².

F.I. Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir³.

V.A. Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjud.

¹ <https://search.app/VNRK2bhptof8Pxfw5>

² Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: EFFECT-D нашриёти, 2022. – Б. 172.

³ Буслаяв Ф. И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. –М., 1954. – С. 37.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo'yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir⁴.

Frazeologiya xususida barcha nazariyotchilar turlicha talqin qilganlar. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra frazeologiya keng tushuncha ba'zi olimlarga ko'ra esa tor tushuncha. Masalan, X. Hamidov "Turk frazeologiyasi masalalari" monografiyasida: "Frazeologiya tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. U keng ma'noda, turg'un so'z birikmalarining barcha turlari, shu jumladan, maqol, matal va shunga o'xshash ko'chma ma'noli birikmalarni anglatadi. Frazеologiyalar tor ma'noda qaralganda, qamrovi qisqarib faqatgina idiomalarni o'z ichiga oladi" – deb yozadi⁵.

Maqsad va vazifalar. Oybekning asarlarida turk tilidagi tarjimaning yutuq hamda kamchiliklarini aniqlash, ularni tahlil qilish, tarjimon mahorati xususiyatlarini o'rganish va ilmiy asoslab berish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Asosiy maqsadni amalga oshirish uchun tarjimon mahoratini ochib beruvchi asosiy kategoriyalarni aniqlash, tarjimada badiiy san'atlarning berilishini tahlil qilish, tarjima hamda aslyat matnlarini solishtirish, tarjima asarlarda milliylikni aks ettiruvchi so'zlarning berilishini tahlil qilish, aslyat va tarjimadagi yutuq kamchiliklarni misollar orqali tahlil qilish kabi vazifalar qo'yildi.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy va tahliliy-qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ushbu maqola uchun manba sifatida olingan mashhur asar, atoqli adib Oybekning "Navoiy" romani turk tiliga ikki marta tarjima qilingan. Mazkur maqolada shu tarjimalarning qay darajada amalga oshirilgani tahlilga tortiladi.

Natijalar. Adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili boyliklaridan jumladan, frazeologizm va iboralardan juda ustalik bilan foydalangan. Ularning turkchaga tarjimasi esa ba'zi o'rinlarda ekvivalentlar vositasida, ayrim joylarda muqobil frazeologizmlar bilan gohida tasviriy usulda ya'ni na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'girishning imkoni topilmaganda, san'atkorlar tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida frazeologik birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib beriladi. Frazеologizmlarni tarjima qilishda kalka usulidan foydalanilganda esa ayrim so'z va birikmalarning o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega emasligi so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilishga undaydi. Har bir til frazeologik zahirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi. Muayyan til jamoasi lafziga mansub bunday frazeologizmlar milliy xususiyatli til vositalari sirasiga kiradi. Ular tilning xalqchilligi va o'ziga xosligini belgilagani

⁴ Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М., 2001. –С. 82.

⁵ Хамидов. X. Турк frazeologiyasi masalalari. / Монография. – Т.: "BAYOZ", 2019. – Б. 13.

holda, badiiy asarning milliy bo'yog'ini yuzaga keltiradi. Frazeologik birliklar milliy xususiyati esa tarkiblarida milliy tushunchalarni anglatadigan so'zlarning qo'llanilishi bilan bunyod etiladi⁶.

Quyida "Navoiy" romanidaga ba'zi frazeologizmlar va ularning turkcha tarjimalarda berilishiga misollar:

"Navoiy" romani turkcha tarjimasida frazeologizmlarning berilishiga misollar:		
Asliyat	A.Botur tarjimasi:	Sh.Qoraqosh tarjimasi:
Ba'zi yaqinlaridan <u>pardali shikoyat</u> qildi. Ba'zi beklarni asossiz maqtadi; [Na, 126]	Arada bir de bazı yakınlarından <u>imalı bir şekilde</u> şikâyette bulundu. Kimi beylerini lüzumsuz yere övüp göklere çıkardı. [Ne1, 115]	Bazı yakınlarından <u>üstü kapalı şikâyet</u> etti. Bazı beyleri esassız methetti. [Ne2, 130-131]
	Turkcha tarjimalarning so'zma-so'z tarjimalari:	
	Ba'zi-ba'zida yaqinlaridan imoli shaklda shikoyat qildi. Ba'zi beklarni asossiz maqtab, ko'klarga ko'tardi.	Ba'zi yaqinlaridan usti yopiq (kinoyali) shikoyat qildi. Ba'zi beklarni asossiz maqtadi.

Frazeologizmlar sintaktik tuzilishiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. Birikmaga teng frazeologizmlar (*katta og'iz, ammamning buzog'i, tuyog'ini shiqillatmoq*)

2. Gapga teng frazeologizmlar (*yuzi yorug' bo'ldi, boshi osmonga yetdi, sirkasi suv ko'tarmaydi*).

Frazeologizmlarning qismlari ajralmas holda bo'lganligi uchun, gapda bitta sintaktik vazifada keladi. Frazeologizmlar tayyor lug'aviy birlik – so'zga teng bo'lganligi tufayli tilda so'zga xos shakl va ma'no munosabatlariga ega bo'ladi:

➤ frazeologik omonimiya (*mas, qo'l ko'tarmoq – 1) urmoq, urmoqchi bo'lmoq, 2) tarafdorligini bildirmoq*)

➤ frazeologik sinonimiya (*toqati toq bo'lmoq – sabrkosasi to'lmoq*)

➤ frazeologik antonimiya (*ko'ngli oq – ichi qora, ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq*) mavjuddir⁷.

Frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida esa Qudrat Musayevning fikriga ko'ra tarjimonlar 4 usuldan foydalanadilar. Bular:

1. Frazeologizmlarni to'la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish. Turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi.

⁶ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 238.

⁷ <https://search.app/VNRK2bhptof8Pxfw5>

Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar⁸.

Aniq misollarga murojaat qilamiz:

Karvonlari Hindiston, Xitoy yo'llarida muttasil qatnab turuvchi bu savdogar, ishning rivoji va ko'rinayotgan foydalaridan og'iz ochmadi, kamchiliklar ustida tilni bir qarich qiladigan, pashshani filga aylantiradigan hamma savdogarlar kabi, yolg'iz chatoqlari haqida gapirdi. [Na, 56]

A.Botur tarjimasi: *Kervanlari sùrekli Hindistan ve Çin yollarında gidip gelen bu tâcir nedense işinin nasıl olduğunu, kâr edip etmediğini anlatmaktan kaçındı. Şeytandan üç gün önce doğmuş, eşeği boyayıp babasına satmış pek çok tacir gibi sadece aksi giden işlerinden bahsetti. [Ne1, 47]*

Sh.Qoraqosh tarjimasi: *Kervanlari Hindistan, Çin yollarında devamlı gidip gelen bu tüccar; işinin gelişmesinden ve bunun sağladığı faydalardan hiç söz etmedi, sadece eksiklikler hakkında çenesi açılıp, sineği fil gibi gösteren bütün tüccarlar gibi, sadece karşılaştığı aksiliklerden bahsetti. [Ne2, 69]*

Yuqoridagi "pashshani filga aylantirmoq" xalq og'zida "pashshadan fil yasamoq" shaklida ishlatiladi. Ya'ni kichkinagina muammodan, katta fojea yasash degan ma'noda keladi. Bu iborani ikki tarjimon ikki xil usulda tarjima qilgan. Birinchi tarjimon "pashshadan fil yasamoq" iborasini "eşegi boyayıp babasına satmış" iborasi bilan tarjima qilgan bo'lsa, Shuayip Qoraqosh esa "sineği fil gibi gösteren" (pashshani fildek ko'rsatib) iborasini qo'llagan.

Shu o'rinda turkcha *Pireyi deve yapmak* (burgadan tuya yasamoq, ya'ni "bir narsani bo'rttirib, mubolag'a bilan gapirish iborasi ustida batafsil to'xtalish kerak bo'ladi. Ushbu iboraning o'zbekcha muqobili "pashshadan fil yasamoq", ruscha muqobili esa "из мухи делать слона"dir. Turli til oilasiga mansub bo'lsa-da, o'zbek va rus tillarida ushbu iboraning obrazli asosi bir xil. So'nggi yuz yil mobaynida tilimizga tarjima orqali o'zlashib qolgan bu ibora (uning ruschadan o'zlashgani ko'pchilikka ma'lum emas) "kichkina narsani katta qilib ko'rsatmoq" ma'nosini anglatadi. Bunda hech qanday sun'iylik yoki g'alizlik sezilmaydi. Lekin o'zbek tilida ayni tushuncha "ignaday narsani tuyaday qilib ko'rsatmoq" iborasi vositasida ham ifodalanadi. Ruscha idiomada kichraytirish obyekti – "pashsha", mubolag'a vositasi esa "fil", o'zbekcha idiomada esa kichraytirish vositasi – "igna", mubolag'a obyekti – "tuya". Lekin yuqoridagi o'zbekcha idiomani ruschaga aynan o'girib, "из иголки делать верблюда" deb tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi. Tarjima sun'iy, ma'no g'aliz chiqadi. Bundan tashqari, ruscha birikmaning har ikkala obyekti ham jonli narsaning nomini ifodalagani holda, o'zbekcha birikmada ikkinchi obrazli asos jonli narsaning nomi (tuya), birinchisi esa jonsiz narsaning nomi (igna)dan iborat⁹. G'.Salomov mazkur idioma xususida ruscha birikmada o'xshatish prinsipi ko'rilmaligi, ya'ni uning so'zma-so'z ma'nosi "pashshadan fil yasash", o'zbekcha birikmada esa o'xshatish borligi ("ignadan tuya yasash" emas, balki "ignaday narsani tuyaday qilib ko'rsatish" ma'nosida

⁸ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 186.

⁹ Хамидов. Х. Турк фразеологияси масалалари. / Монография. – Т.: "BAYOZ", 2019. – Б. 68

qo'llanilishi)ni ta'kidlaydi¹⁰. Iboraning turk tilidagi aynan muqobili bo'lgan *pireyi deve yapmak* (burgadan tuya yasamoq)ning turkcha-ruscha lug'atdagi muqobili *делать из мухи слона* matali (pogovorka), so'zma-so'z (igna tuya, pire-deve, муха - slon) tarjimasida esa *делать из блохи верблюда* ekanligi yozilgan¹¹. Keltirilgan iboralardan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, ularning shakllanishida xalqqa tanish, kundalik hayotda uchraydigan narsalar nomi asos olingan¹².

2. Frazeologizmlarni muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish. Tarjima tilida asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi.

Frazeologizmlarni muqobil iboralar bilan tarjima qilish muhim hisoblanadi. Biroq tarjima qilinayotgan tilda asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o'zaro muqobillik munosabatida bo'ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo'lishi va iste'foda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etishda o'z turmush tushunchalari, urf-odatlarini, milliy-falsafiy qarashlari va o'ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi¹³.

3. Frazeologizmlarni tasviriy usulda tarjima qilish. Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'g'irishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida frazeologik birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'yaqolinadi.¹⁴

M: *O'n yetti yoshdan boshlab To'g'onbek Movarounnahrda³, "Xurosonda", "Dashti Qipchoqda" Iroqda va, umuman, bir vaqtlar Amir Temurning qilichiga tobe bo'lgan bir ko'p mamlakatlarda qaynoq siyosiy kurashlarga, uzluksiz qo'zg'olonlarga, fitnalarga boshi bilan sho'ng'idi. [Na, 11]*

A.Botur tarjimasida: *Doğanbey on yedi yaşından itibaren Mâverâünnehir'de, Horasan'da, Deşt-i Kıpçak'da, Irak'ta ve özellikle bir zamanlar aksak Timur'un kılıcını öpen pek çok memlekette iç savaşlara, fitnelere ve komplolara karışmış, mevki ve şöhret elde etmek için kelleği koltuğa almıştı. [Ne1,9]*

Sh.Qoraqosh tarjimasida: *On yedi yaşından itibaren Toğanbek Maverâünnehir'de, Horasan'da, Deşt-i Kıpçak'ta, Irak'ta ve genel olarak bir zamanlar Aksak Timur'un kılıcına tabi olan birçok memlekette şiddetli siyasi mücadelelere, aralıksız isyanlara, fitnelere karıştı. [Ne2, 34]*

Yuqoridagi jumlada Oybek holatni yanada jonlantirish uchun "*fitnalarga boshi bilan sho'ng'idi*" iborasini qo'llar ekan, "*fitnalar ichida qoldi*" kabi ma'nolarni berishga harakat

¹⁰ Саломов Ф. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, –Б. 35.

¹¹ Баскаков А.Н. Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük. – М. Russkiy yazik Yayınevi, 1977. – С. 722.

¹² Ҳамидов Х. Мақол ва идиомалар таржимаси муаммолари. – Т. 2017, – Б. 25.

¹³ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Т., 2005. –Б. 195-196.

¹⁴ Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2015. – B. 43.

qilgan. Birinchi tarjimon asarni ag'darar ekan turkchada "boshi bilan sho'ng'imoq" iborasi bo'lmaganligi bois "fitnelere karışmış" birikmasini ishlatgan va davomidan "mevki ve şöhret elde etmek için kelleyi koltuğa almıştı" (mavqe' va shuhrat qozonmoq uchun boshni o'rindiqa qo'ygandi) deb o'zidan bir gap to'qib qo'shib yuborgan. Turkchadagi "kelleyi koltuğa almak" iborasi o'zbekchadagi "o'limga tik boqmoq"ning muqobili hisoblanadi.

Kefeni boynunda – "kafani bo'ynida". Kefeni boynunda (kafani bo'ynida) yoki kelle koltukta (kalla qo'ltiqda) iboralari va o'zbekcha "bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda" yoki qisqacha "bir oyog'i go'rda" iboralari bir xil ma'no, ya'ni insonning "ajali yetganligi"ni bildirsa-da, o'zbekcha muqobillarda insonning keksayib, o'limi yaqinlashishi tushuniladi. Ammo turkcha muqobillarda o'limning har qanday yoshda kelishi mumkinligi, ya'ni inson uchun o'lim havfi tug'ilganligi tushuniladi. Bu yerda o'zbekcha iboraning ma'nosi одной ногой в могиле iborasi ma'nosiga to'g'ri keladi, turkchaga esa mos kelmaydi¹⁵.

4. Frazelogizmlarni kalka usulida tarjima qilish. Hech bir til frazeologik birliklari hayotdagi barcha jihatlarni qamrab ololmasliklari tufayli bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologizm o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Bu yo'l vositasida tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifani aks ettira oladi. Bunday paytda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tili lug'at tarkibining boyishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi¹⁶.

Misol tariqasida "Navoiy" romanida kelgan mazkur iboraga e'tibor bersak:

M: *Xilini, tamini surishtirmay, qozoqlar qimiz ichishganday, juda ko'p ichadigan To'g'onbekka ikki kosa may hech kor qilmadi; chanqoq tuyaning labi suvga tegdi, xolos! [Na, 31]*

A.Botur tarjimasi: *Kalite ve tadına bakmaksızın kımız içen Kazaklar gi bi oldum olası çok için Doğanbey iki maşrapa şarabı içtiği halde bana mısın dememişti. Sanki çölde kalmış susuz devenin dudakları suya şöyle bir değmişti o kadar! [Ne1, 26]*

Sh.Qoraqosh tarjimasi: *Çeşidini ve tadını sormaksızın önüne gelen şarabı kafaya dikiveren ve Kazakların kımız içmesi gibi çok fazla için Toğanbek'e iki kâse şarap hiç kâr etmedi, sanki susuz kalan bir devenin ağzı suya değmişti, o kadar! [Ne2, 50]*

Asliyatdagi "chanqoq tuyaning labi suvga tegdi" iborasi ikki tarjimon tarafidan so'zma-so'z o'girilgan bo'lsa-da, so'zlar juda chiroyli tanlangan.

Har doim ham asliyat asarda mavjud bo'lgan frazeologizm boshqa tilda mavjud bo'lmasligi mumkin. Xo'sh, bunday jarayonda tarjimon qanday yo'l tutmog'i kerak. Masalan, tadqiqotimizning ob'yekti hisoblangan "Navoiy" romanida tarjimonlar qanday yo'l tutgan. Har ikkala mutarjim ham asliyatdagi frazeologizmlar tarjimasi ustida ancha salmoqli ishlarni bajarishgan. Ulardan biri iboralarni so'zma so'z tarjima qilgan bo'lsa, ikkinchisi iborani ibora

¹⁵ Хамидов. Х. Турк фразеологияси масалалари. / Монография. – Т.: "БАҶОЗ", 2019. – Б.153

¹⁶ Мусаев К. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 199.

bilan tarjima qilgan. Yoki bo'lmasa o'zga tilda mavjud bo'lmagan iborani ayni ma'noni anglatuvchi boshqa muqobili bilan almashtirgan.

Inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan va adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi frazeologizmlar atrofni o'rab turgan tabiat va undagi turli hodisalar, o'simlik dunyosi, inson va hayvonot olami, barcha jonlilarning tana a'zolari, xatti-harakatlariga qiyosan yuzaga kelgan. Zero, bir xalqning badiiy tafakkuri, milliy o'ziga xosliklari aks etgan bunday birliklar barcha murakkabliklari bilan tarjimini qiyinlashtiruvchi omil sanalib, bunday birliklarning ishonchli muqobil vositasida berilmasligi fikrning tarjimada berilmay qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi¹⁷.

“Navoiy” romani turkcha tarjimasida		
frazeologizmlarning berilishiga misollar:		
Asliyat	A.Botur tarjiması:	Sh.Qoraqosh tarjiması:
Faraz qilaylik, - dedi Navoiy kulib, - g'azalni yuz shoir tatabbu etib, <u>qalam sursalar</u> , yuz g'azal vujudga keladi. Bir tup gul yuz g'uncha ochadi! [Na, 52]	- Tahminimce - dedi Nevâî gülerek, - bu gazeli yüz şâire dağıtsak, onların yapacakları nazire ile yüz gazel ortaya çıkar. Böylece bir top gül yüz gonca vermiş olur! [Ne1, 43]	Farz edelim dedi Nevâyi gülerek, “Gazeli yüz şair tettebbu edip kalem oynatacak olsalar yüz ayrı gazel meydana gelir. Böylece bir demet gül, yüz gonca açar!” [Ne2, 65]
	Turkcha tarjimalarning so'zma-so'z tarjimalari:	
	- Menimcha – dedi Navoiy kulib, – bu g'azalni yuz shoirga tarqatsak, ularning ishlari bilan yuz g'azal vujudga keladi. Shunday qilib bir to'p gul yuz g'uncha hosil qiladi!	Faraz qilaylik dedi Navoiy kulib, “G'azalni yuz shoir tatabbu etib Qalam tebratsalar yuz g'azal vujudga keladi. Shunday qilib bir tup gul, yuz g'uncha ochadi”.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o'ynaydi. Aniqrog'i, frazeologiya olam lisoniy manzarasining bo'lagidir. Frazeologik birliklar “xalq hayotining ko'zgusi”dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi¹⁸.

¹⁷ Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: EFFECT-D нашриёти, 2022. – Б. 172.

¹⁸ Фраzeологический словарь русского литературного языка / Под ред. Федорова А. И. –М., 1996; Образные средства русского языка / Под ред. Телия В. Н. –М., 1995. – С. 69.

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi.

Frazeologizmlar tarjimasidagi eng katta qiyinchilik ularning milliy asosga egaligida – o'zida u yoki bu xalqning ruhiyati, tabiati, e'tiqodi, madaniyati, qadriyati, urf-odat, rasm-rusum, an'analarini aks ettirganidadir. Shuning uchun tarjimonlar frazeologizmlar tarjimasida turli usullarni tajriba qilib ko'rgan bo'lsalar-da, ularni hamisha ham muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi. Ayni frazeologizm ba'zida bir necha xilda tarjima qilingan, ba'zida, ta'kidlab o'tilganidek, bir frazeologizmning muqobil nusxasini topguncha bir necha tarjimonlar izlanishlar olib borishlariga to'g'ri kelgan, ba'zida frazeologizm ma'nosi noto'g'ri talqin etilgan yoki buzib tarjima qilingan, ba'zida tarjima tilidan unga muvofiq, ba'zida zid ekvivalent topib qo'yilgan.¹⁹

Frazeologizmlar milliylikka asoslangani uchun ularni tarjima qilish hamisha qiyinchilik tug'dirib, ayrim hollarda tarjimonga katta mas'uliyat yuklaydi. Odatda, bir tildan boshqa tilga frazeologizmlarning shakli emas, asosan mazmuni ko'chadi. Ana shu mazmuni to'g'ri ifodalash, u yoki bu frazeologizmning boshqa tildagi muvofiq muqobilini topish uchun talaygina tarjimonlar izlanishlar olib borganlar.

Xulosa. Asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o'tkir, ta'sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Yozuvchilar o'z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman o'zgartiradilar, shu yo'l bilan yangi iboralar yaratadilar. Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Said Ahmad va boshqa yozuvchilar tomonidan ijod qilingan frazeologizmlar bunga misol bo'la oladi. Yuqorida taniqli o'zbek adibi Oybekning "Navoiy" romanida ham bir qancha frazeologizmlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu frazeologizmlarni turkchadagi varianti qay darajada o'zbekchasiga mos tushganligini ishimizda tahlillar orqali ochib berishga harakat qilindi.

Badiiy tarjimada xalqona obrazli iboralarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, asarning ohoriy (original) badiiyligini tarjima qilinayotgan tilda berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlarni ekvivalent yoki muqobil iboralar bilan tarjima qilish muhim. Biroq tarjima qilinayotgan tilda asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Frazeologizmlarni tasviriy usulda tarjima qilish ham mumkin. Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'girishning imkoni topiladi. Bunday holatda frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt yo'l bilan – asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar yordamida tarjima qilinadi.

Asliyatda berilgan iboralarning muqobil variantlari tarjimalarda moslab, turk milliy koloritiga putur yetkazmagan holda asar tarjimasida berilgan. Tarjimonlar asarni tarjima qilar ekan,

¹⁹ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – T.: "ToshDSHI", 2014. – B. 111.

asliyatda ibora bo'lmagan so'z va so'z birikmalarni ibora shaklida bergan va tarjimaning badiiy saviyasini yanada oshirgan bu esa tarjima tilini boyitgani yaqqol ko'rinadi.

Asliyatda berilgan ibora tarjimalarda so'z bilan berilgan holatga ham guvoh bo'ldik, bunda asosan milliylik aks ettirilgan iboralar ko'zga tashlanadi va bunday holatda mutarjim uni o'z milliyligiga moslab qo'yishdan qochganligi namoyon bo'ladi.

SHARTLI QISQARTMALAR

[Na] – Oybek, Navoiy, roman, / “Asr oshgan asarlar” turkumi// Tahrir hay'ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: “Sharq”, 2004, – 496 b.

[Ne1] – Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995.

[Ne2] – Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. –İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.

